

TALABALARINING IJODKORLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGNING O’RNI

Shofiddinova Zulfizar Ixtiyor qizi

TDIU tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10779058>

Globallashuv davrida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar pedagogik jarayonga o’z ta’sirini ko’rsatayotganini e’tiborsiz qoldirib bo’lmaydi. Innovatsiyalar ta’lim sifatini takomillashtirishdagi muhim omillaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy dunyoda shaxsdan ijodiy fikrlash, aqliy moslashuvchanlik, tubdan yangi g’oyalarni ishlab chiqarish qobiliyatni, oldiga qo’yilgan masalalarni g’ayrioddiy tarzda hal qilish qobiliyatini va tajribalar qilishga tayyorligini talab qiladi. Bugungi kunda ijodkorlik qobiliyatining mavjudligi hayotning barcha jahbalarida, bu xoh ijtimoiy soha bo’lsin, xoh iqtisodiy soha bo’lsin, katta afzallik hisoblanadi.

Ijodiy faoliyatni insondan aslo ajratib bo’lmaydi. Ular bilish, qiziqish va ishonch, emotsiyonal holat va matonat, o’z oldiga qo’yan rejalariga va maqsadlariga talpinishi, talabchanlik, mehnatsevarlik kabi xislatlar bilan uzviy bog’liq. Pedagogik jarayonda talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish murakkab va serqirralidir. Ushbu xislat paydo bo’lishi, o’sishi va rivojlanishi boshqa qobiliyatlar kabi xato qilish va tajriba orqali amalga oshiriladi. Insonning kasbiy fazilatlari umri davomida ilm egallashini taqozo etadi. Rivojlanib borayotgan jamiyatda ilmning o’rni yuqoriligini e’tirof etish shartdir. Aynan shu sababdan o’quvchilar va talabalarda ijodkorlik qibiliyatlarini shaklantirish va rivojlantirish eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bugungi kun pedagogika jarayoni asosli ravishda shuni ko’rsatadiki, ta’lim-tarbiya sifati avvalambor dars sifatiga chambarchas bog’liq. Faqat dars mashg’ulotlari pedagogik jarayonning oqimini boshqarib turadi. Qaysi pedagog o’z kasbining yetuk mutaxassisini bo’lishni istamaydi? Qaysi pedagog o’quv jarayoni foydali, sermazmun, qiziqarli bo’lishini, talabalari esa uning ortidan ergashishini xohlamaydi? Bunga erishish nafaqat uzoq yillik mehnat tajribasiga ega bo’lish, aksincha dars metodikasini, talaba ruhiy holatini to’g’ri tushunish, kerak bo’lganda uning fe’l-atvorini o’rganish, zamon bilan hamnafas bo’lishni talab qiladi. Shu bilan bir qatorda pedagogning ham ruhiy va emotsiyonal holati, o’z kasbini sevishi, o’z ustida ishlashi ham pedagogik jarayonning muhim bo’g’ini hisoblanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, pedagogda bilim bilan mustaqil analitik fikrlash hamohanglikda olib borilishi kerak. Aynan pedagog talaba qanday qobiliyatga ega ekanligini ko’ra bilish, unga to’g’ri yo’nalishni ko’rsata olish, xatolari va kamchiliklari ustida to’g’ri xulosa chiqara olishini o’rgatish pedagog faoliyatining muhim vazifalaridandir.

Talabalarda ijodkorlik qobiliyatini yuzaga keltirish, mavjud qobiliyatlarini rivojlantirish, ularni amaliyatda qo’llash va samardorligini oshirish ta’lim-tarbiya sifatining mukammallahishiga asos bo’lib xizmat qiladi. Buning uchun pedagogda ijodkorlik qobiliyati ham yuqori darajada bo’lishi kerakligini inkor qilib bo’lmaydi. Ijodiy tafakkur, yaratuvchanlik, intellektual salohiyatga ega bo’lgan kasb egasi dars jarayonida muammoli vazivaytlarni to’g’ri tanlab, talabalar holat yuzasida mantiqiy mulohaza yuritishi sharoit yaratib berish kabi xislatlar mujassamlashgan bo’lishi lozim. Sharqning buyuk siymolari ham ushbu fazilatlar haqida shunday fikr yuritganlar: “Ijodiy tafakkur shunday buyuk fazilatki, uni amalda qo’llash uchun odamzod boshqa barcha fazilatlarini ishlata olishi kerak”.

Ijodkorlik qobiliyati E. Torrance fikriga ko’ra, muammolarga, bilimdagi kamchiliklar yoki nomuvofiqliklarga nisbatan sezgirlikni oshirish, shuningdek, ushbu muammolarni aniqlash,

gipotezalarga asoslangan yechimlarni topish, natijani shakllantirish uchun gipotezalarni sinab ko‘rish va o‘zgartirishni o‘z ichiga oladi. U ijodkorlikning quyidagi mezonlarini aniqladi:

- Ravonlik – ko‘p sonli g‘oyalarni yaratish qobiliyati;
- Moslashuvchanlik – muammolarga turli yechimlar taklif qilish qobiliyati;
- Originallik – noodatiy, nostandard g‘oyalarni ishlab chiqarish qibiliyati;
- Ishlab chiqish – yuzaga kelayotgan g‘oyalarni bat afsil ishlab chiqish qobiliyati;
- Yopilishga qarshilik - bu stereotiplarga ergashmaslik va turli kiruvchi narsalarga uzoq vaqt davomida "ochiq qolish" qobiliyatidir.

Mavhumligi - bu haqiqatan ham muhim bo‘lgan muammoning mohiyatini tushunish.

Demak, bundan fikr qilish lozimki, talabada yuqoridaq fazilatlar mavjud bo‘lishidan oldin, avvalo pedagog bu xislatlar bilan “qurollangan” bo‘lishi lozim ekan. Talabalarning ijodkorlik qobiliyatlarini ro‘yobga chiqaruvchi pedagoglar ortib borishi uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratilishi talab etiladi. Ilmiy ishlar va tadqiqotlar olib borish uchun muhit yaratilishi va rag‘batlantirilishi samarali yechim hisoblanadi.

O‘z o‘rnida ta’kidlab o‘tish ham lozimki, tabiat tomonidan berilgan iqtidor, genetika, jamiyat, oilaviy muhit hal qiluvchi omillar ekanligini inkor etib bo‘lmaydi. Dunyo jadal rivojlanib borayotgan davrda ijtimoiy tarmoqlarning o‘rni ham beqiyosdir. Pedagogik jarayonning barcha ishtirokchilari raqamli savodxonlikka egaligi zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanishni ta’minlab beradi. O‘quv jarayonlarida multimedia dasturlaridan, virtual stendlardan, hisob-grafik usullaridan foydalanish orqali yuqori samaradorlikka erishish mukin.

Shunday qilib, talabalarda ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda ko‘plab omillar ta’sir etishini anglash mumkin. Har bir sohada bo‘lgani kabi pedagogikada ham kasb egasidan mohirlik, tirishqoqlik, ishiga bo‘lgan muhabbat, kasbiy kompetentlik, innovatsion yechimlar taklif qila olish qobiliyatları talab etilar ekan. Aynan mana shu sifatlar ko‘zlangan maqsadga erishishda, ta’lim sifatini oshirishda, jamiyat uchun yetuk kadrlar yetqazib berishda, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarning yuqori cho‘qqilarga chiqishiga xizmat qilar ekan.

REFERENCES

1. E. P. Torrance. Creativity and style of learning and thinking characteristics of adaptors and innovators. 1980
2. Развитие творческого мышления студентов в процессе изучения естественно-научных дисциплин. Галкина Елена Николаевна. Мир науки. Педагогика и психология 2019, №2, Том 7
3. Утёсов В.В. Креативная педагогика / В.В. Утёсов, М.М. Зиновкина, П.М. Горев. – М.: Юрайт, 2019.
4. Орлова, С.Н. Развитие творческого мышления личности: монография / С.Н. Орлова. – Красноярск: СибГТУ, 2014.